

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ ADABIYOT AN'ANALARI

S.Zayniddinova

Chirchiq DPU, magistrant

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot jarayonida xalqimizning sevimli shoiri Sirojiddin Sayyid she'riyatida mumtoz she'riyat ruhi, ta'siri, an'analari va ijodkorning badiiy mahoratini tahlil qilish ko'zda tutilgan.*

Kalit so'z: *Mumtoz adabiyot, lirik janr, tazmin, muxammas, vorisiylik, an'ana, aqid.*

KIRISH(Introduction)

Mumtoz va zamonaviy adabiyot nimasi bilan farqlanadi? Ularning insoniyat ruhiy olamiga ta'siri qay asnoda kechadi? Shu va shu kabi savollarga javob berish har bir she'riyat ixlosmandining qo'lidan kelavermaydi meni nazaramda. Bunga javobni faqatgina Hazrat Navoiyning Farxodi kabi ona qornidan ishq bilan tug'ilgan, aynan she'riyat ishq bilan tug'ilgan insongina javob bera oladi.

Zamonaviy adabiyot degani ajdodlarimiz yaratgan, shu bilan birga qadimiy yuksak meroslardan voz kechish emas, balki undan ijodiy foydalangan holda yanada taraqqiy ettirishdir.

Dilmurod Qur'onov ta'biri bilan aytganda: Adabiyot taraqqiyotning uzluksiz jarayonida har bir davr o'zidan oldingi davrlardan eng yaxshi jihatlarni o'ziga singdiradi, ularni sayqallaydi, maromiga yetkazadi, ayni cho'g'da o'zidanda nedir yangilik qo'shishga intiladi. Shu tariqa adabiyotning uzluksiz taraqqiyoti ta'minlanadi. Adabiyotdagi vorisiylik, an'analarga sodiqlik har bir milliy adabiyotdagi o'ziga xoslik, milliy qiyofaning yo'qotilmasligini kafolatlaydi. Har bir ijodkor borki, adabiyot bo'stoniga kirdimi, shubhasiz ularni bu bo'stonga yetaklagan kuch, muhabbat mavjud. O'zidan avvalgi ijodkorlar qoldirgan ijodiy meros, badiiy namunalar muhabbatidir. Ana shu muhabbat sabab qo'lga qalam oladi. O'rni kelganda bu meroslarda o'zini vorisiylardan deb biladi. Maoniy ahlining sohibqironi Hazrat Alisher Navoiyning badiiy ijoddagi kashfiyotlari, qariyb olti asrki, keyingi barcha zamonlarda millat adabiy-estetik tafakkurni takomiliga hayotbaxsh ta'sir o'tkazib kelayotir. Bu ijodiy ta'sir buyuk shoir asarlariga tazmin va tatabbular yozish, g'azallariga taxmis bog'lash, turli adabiy tur va janrlarda ulug' mutafakkir obrazi tasviri, ijodiy an'analarni davom ettirish va yangilash kabi shakllarda nomoyon bo'layotgani ko'zda tutiladi. Alisher Navoiy ijodiy kashfiyotlarini o'rganish, adabiy ijodda unga izdoshlik qilishga

intilish buyuk bobokalonimizdan keying barcha davrlar adabiyotida o'sish va ulg'ayishning asosiy omili bo'lgan poetik tafakkurni yangi miqyoslarga yuksaltirgan.

1. Oripova G. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatining g'oyaviy–badiiy xususiyatlari. Farg'ona 2021. 2. Jabborov N.A "Alisher Navoiy va sharq renessansi. Il xalqaro simpoziumi. Ilm-ziyo Zakovat. 2023.

Ushbu kichik tadqiqotda Ozbekiston Xalq yozuvchisi Sirojiddin Sayyid ijod mahsullari misolida, ya'ni zamonaviy o'zbek she'riyatida bu jarayon qay yo'sinda, qanday adabiy va estetik qonuniyatlar asnosida kechayotgani, shoir badiiy mahorati tahlilga tortilgan. Sirojiddin Sayyid tom ma'noda mumtoz ijodkor, milliy shoir. Yozgan she'rlari sodda va samimiyligi, ohangdorligi, g'oyaviy mazmunning ustivorligi bilan ajralib turadi, shoirning ijodida mumtoz she'riyat daholari Xayyom, Rumi, Navoiy va Mirzo Bobur she'riyatining ta'siri o'zgacha bir o'rin tutadi.

Sen O'zingsan ul abaddin ham azal,
Ul azaldin ham iborat-sen O'zing...
Bargu yaproq aytadir takbir Senga,
Har niholdin har ibodat –sen O'zing...
Sen O'zingsan loyga jon etgan ato
Tosh aro mavjud siroyat sen –O'zing...
Barcha pinhon ichra paydosan, yana
Barcha paydoda sinoat –sen O'zing...
Sen O'zingsan ham Rahimu ham Karim,
Har karomat, har inoyat sen- O'zing...
Sen o'zingsan ibtidosiz ibtido,
Benihoyat, benihoyat-sen O'zing...

Hazrat Navoiy munojotiga tazmin qilingan ushbu baytlar, birinchidan, mazmunan aqoid ilmiga har jihatdan muvofiq ekani, ikkinchidan, mumtoz she'riyat talablariga to'liq mosligi, uchinchidan, ilhom va zavqu shavq bilan bitilgani jihatidan qimmatlidir.

Sirojiddin Sayyid ijodini ixlosmandi bo'lgan har bir kitobxon Navoiyyona qarashlar, Boburona yondoshuvni darhol anglab oladi.

Navoiy senga har bir tun kerak bo'lgay.
Agar shodsan va yo maxzun kerak bo'lgay.
Agar oshiq erursan lolazoringdir,
Agar Laylosanu Majnun kerak bo'lgay.

"Xamsa hayratlari" shoir she'riyatida yangi sahifa ochgan turkum. Buyuk beshlikdagi o'zi hayratlangan satrlarga tazmin bitgan shoir ko'nglidan

o'tgan lirik kechinmalarni falsafiy tafakkur uyg'unligida betakror talqin etadi. Hazrat Alisher Navoiyning "Hayrat ul abror"dagi munojotlaridan ta'sirlangan ijodkor "Avvalg'i munojot "dan mana bu satrlarni keltiradi.

Ey Sanga mabda'da abaddek azal
Zoti qadiming abadiy lam'yazal.

Ne bo'lib avval bidoyat Sanga
Ne kelub oxirda xidoyat Sanga
Avval o'zing, oxiru mobayn O'zing
Barchag'a xoliq, borig'a a'yn o'zing

1. Jabborov.N.A "Maoniy ahlining sohibqironi"2021-yil.

Zamondosh shoirlarimiz uchun, odatda, bu turdagi satrlarga tazmin bitish tugul ular zamiridagi mohiyatni anglash ham oson kechmasligi ayon. Shu jihatdan, Sirojiddin Sayyidning ayni mavzuga qalam urishi, uning Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan ixlosi nechog'liq baland ekanini ko'rsatadi.¹

Botini va Zohiri aynan bo'lgan shoir Sirojiddin Sayyid butun vujudi, ruhi bilan chin ma'noda mumtoz she'riyat vorisidir. Zamondosh qalam ahllari ichida mumtozda u kabi xo'p va ko'p yozgan shoir yo'qdir. Va yana butun vujudi, ruhiy olami bilan klassikani anglash, unga singib ketish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.

XULOSA.

Ta'bir joiz bo'lsa ARAB+FORs-TOJIK=MUMTOZ deya mumtoz adabiyotga formula tuzgan bo'lar edim.Bu fikrimga ayni damdagi zamondosh adabiyotshunoslarimiz ijrg'anishmasa deb qo'rqaman. Buning sababi mumtoz she'riyat, mumtoz adabiyot xususida ilmiy qarashlarim kamligida deb bilaman.

Nafaqat turkiy adabiyotni, butun dunyo adabiyoti tafakkuri cho'qqisini Nizomiddin Alishersiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Navoiydan keyingi avlod qalamkashlari Maqsud Shayxzoda tili bilan aytganda Navoiy ijodxonasi eshiklarini kattaroq ochish, unga yanada ichkariroq kirish orzu-umidi bilan yashaganlar.

Aksar qalam ahli bunga erishgan. Ammo, bu baxtga muyassar bo'lmaganlar ham bisyor.

Sirojiddin Sayyid ana shu ijodxonaga ichkarilab kirib borgan va ul yerda qoldirishga arziqli bitiklar bitayotgan qalam sohibidir. Va u shu bitiklari sabab Navoiyning chin merosxo'ri deyishga loyiqdir. Men shunday deb xisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jabborov Nurboy Abdulhakimovich. "Alisher Navoiy va sharq renessansi". "Ilm-ziyo-Zakovat" 2023
2. Jabborov Nurboy Abdulhakimovich. "Maoniy ahlining sohibqironi" 2021
3. Dilmurod Qur'onov. "Adabiyot nazariyasi asoslari" Toshkent 2018
4. Jabborov Nurboy Abdulhakimovich. "Zamon, mezzo, she'riyat" Toshkent 2015
5. Sayyid Sirojiddin. Asarlar. To'rt jildlik. Toshkent. Sharq 2018.
6. Oripova G. "Mustaqillik davri o'zbek she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari" Farg'ona 2021.